[10]. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, A.Madvaliyev tahriri ostida, Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006–2008.
[11]. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006.
[12]. Karimov S.A. O‘zbek tilining grammatik stilistikasi masalalari: ma’ruzalar matni. Samarqand, SamDU, 2012.
[13]. Hojiyev A. Fe’l. Toshkent, “Fan”, 1973.
[14]. Potts C. The Logic of Conventional Implicatures. Oxford: Oxford University Press, 2005.
[15]. Cruse D.A. Lexical Semantics. Cambridge, Cambridge University Press, 1986.

Karimova Xurshida Abdurashid qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti doktoranti; E-mail: botanichkahurshika@gmail.com)

HOZIRGI XITOY TILI QUYOSH ENERGETIKASI TERMINLARI HOSIL BO‘LISHIDA AFFIKSATSIYA USULINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot hozirgi xitoy tilida quyosh energetikasi terminlarining hosil bo‘lishida affiksatsiya usulining o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda affiksal so‘z yasalish jarayonining terminologik tizimdagi ahamiyati aniqlanadi. Xitoy tilida yarim affikslar va so‘z yasovchi suffikslar yordamida hosil qilingan terminlarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari soha terminologiyasini tizimlashtirish hamda xitoy tilshunosligida so‘z yasalish jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *quyosh energetikasi, xitoy tili so‘z yasash usullari, affiksatsiya usuli, prefiks, sufiks.*

Каримова Хуршида Абдурашидовна (Докторант Ташкентского государственного университета востоковедения; E-mail: botanichkahurshika@gmail.com)

АФФИКСАЦИЯ КАК СПОСОБ ОБРАЗОВАНИЯ ТЕРМИНОВ СОЛНЕЧНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Данное исследование посвящено изучению роли способа аффиксации в образовании терминов солнечной энергетики в современном китайском языке. В работе определяется значение аффиксального словообразования в терминологической системе. Рассматриваются особенности терминов, образованных с помощью полу-аффиксов и словообразовательных суффиксов в китайском языке. Результаты исследования способствуют систематизации терминологии данной области, а также более глубокому пониманию процессов словообразования в китайском языкознании.*

Ключевые слова: *солнечная энергия, методы словообразования в китайском языке, аффиксация, префикс, суффикс.*

Karimova Khurshida Abdurashid qizi (PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Republic of Uzbekistan; Email: botanichkahurshika@gmail.com)

AFFIXATION AS A WORD-FORMATION METHOD IN MODERN CHINESE SOLAR ENERGY TERMINOLOGY

Annotation. *This research is devoted to studying the role of affixation in the formation of solar energy terminology in modern Chinese. The study identifies the significance of affixal word formation within the terminological system. It examines the specific features of terms formed with the help of semi-affixes and derivational suffixes in the Chinese language. The results of the research contribute to the systematization of terminology in this field and to a deeper understanding of word-formation processes in Chinese linguistics.*

Keywords: *solar energy, Chinese word formation methods, affixation, prefix, suffix.*

Kirish. An’anaviy tarzda “so‘z yasalishi” deb mavjud bo‘lgan til birliklari asosida yangi so‘zlarning hosil qilinishiga aytiladi. Shunga asosan, so‘z yasalishi tilning lug‘aviy tarkibining turli usullar bilan boyitilishi sifatida tushuniladi [5;27-b.].

Grammatikaning tarkibiy qismi hisoblangan so‘z yasalishi grammatik qonuniyatlarga asoslangan holda yangi so‘z hosil qilish usullaridir. So‘z yasalishi til leksik fondini boyituvchi va rivojlantiruvchi eng asosiy yo‘llardan hisoblanadi [22].

Xitoy tilida so‘z yasash haqida I.Oshanin [10], A.Dragunov [7], N.Korotkov [11], V.Solntsev [13], A.Xamatova [14], V.Gorelov [8], O.Frolova [9], I.Klenin [12] kabi tilshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida batafsil yoritganlar. Xususan, V.Gorelov xitoy tilida so‘z yasalishning leksik-semantik, leksik-morfologik, morfologik, morfologik-sintaktik, morfologik-fonetik, leksik-semantik usullarini hamda reduplikatsiya va kontraksiya hodisalarini ko‘rib chiqgan. O.Frolova esa so‘z yasalishining morfologik, sintaktik, fonetik va konversiya usullarini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

O‘zbek xitoyshunosligida A.Karimov [3], S.Nosirova [2], S.Hashimova [5], L.Sultanova [4], S. Mustafayeva [1] kabi xitoyshunos olimlarning tadqiqot ishlarida xitoy tilida so‘z yasash usullari, xususan termin yasash usullarini batafsil ko‘rib chiqqanlar.

Xitoy tilshunoslarining so‘z yasalishga oid yagona qarashlari mavjud emas. Xitoy tilshunoslari Chen Jie [16] va Li Jinsi [17] yangi so‘z hosil qilishning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan:

1. Leksik-morfologik usul, masalan: affiksatsiya, reduplikatsiya.
2. Sintaktik usul.
3. Fonetik usul.

Bu yerda leksik-morfologik usul deganda, so‘z yasashning affiksatsiya va reduplikatsiya usullari nazarda tutiladi. Sintaktik usulda esa asoslarni qo‘shish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilinadi. Fonetik usulda yasalgan so‘zlarga taqlid so‘zlar misol qilib keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi va manbasi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi quyosh energetikasi terminlari hosil bo‘lishida affiksatsiya usulining o‘rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanildi: statistik usul, qiyosiy metod va tahliliy metod.

Tadqiqot materiali sifatida 2013-yil Pekinda nashrdan chiqgan **英**汉太阳能词典*Inglizcha-xitoycha quyosh energetikasi lug‘ati* olindi va undan quyosh energetikasi sohasida oid 1500 ta termin tanlab olindi. 1500ta termindan tahlil natijasida, 376 tasi affiksatsiya usuli orqali hosil bo‘lgani aniqlandi.

Natijalar. Umumadabiy til leksik qatlamini boyituvchi so‘z yasash usullari termin yasashda ham bir faol va samarali hisoblanadi, bular: semantik, sintaktik va morfologik usullardir [6;90-b.]. Xitoy tili so‘z yasalishida so‘zga so‘z qo‘shib yasash usuli yetakchilik qiladi, affiksatsiya usuli esa undan keyingi o‘rinda turadi [13;81-b.].

Tahlil. Xitoy tilida affiksatsiya usuli mahsuldorlik jihatdan kompozitsiya usulidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Tilshunoslikda affiksatsiya va yarimaffiksatsiya ikki xil mustaqil usullar sifatida o‘rganiladi. Bu ikki usulning bir-biridan farqi shundaki, birinchi usul yordamida xitoy tilida mavjud so‘zlar va so‘z negizlari asosida yangi so‘zlar hosil bo‘ladi, ikkinchi usulda esa yarimaffikslar yordamida yangi so‘zlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Affiksatsiya so‘z yasalishining morfologik usuliga, yarimaffiksatsiya esa leksik-morfologik usuliga kiradi [2].

Affikslar o‘z ichiga prefikslar, suffikslar va yarimsuffikslarni oladi. Hozirgi xitoy tilida so‘z yasovchi affikslarning aksariyati mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan kelib chiqqan. Shuningdek, xitoy tilida hali mustaqil so‘zdan to‘liq affiksga aylanish jarayonini oxirigacha bosib o‘tmagan morfemalar juda ko‘p. Bunday morfemalar affiks va mustaqil so‘z yasovchi morfema o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi va yarim affikslar deb ataladi [14;181-b.].

Xitoylik tilshunoslar orasida qaysi morfemalarni prefiks deb hisoblash mumkinligi masalasida turli fikrlar mavjud. Lu Chjivey faqat uchta haqiqiy prefiks mavjud, deb hisoblaydi, ular: 第 dì, 老 lǎo va 小 xiǎo [18]. Li Jingsi va Lyu Shijju esa faqat 阿 a, 老 lǎo va 小 xiǎo morfemalarini ot yasovchi prefikslar deb biladilar, qolganlari esa aniq ifodalangan leksik ma’noga ega, deb hisoblaydilar [19]. Din Shenshu esa xitoy tilida prefiksal qo‘shimchalar sifatida faqat 老 lǎo, 第 dì va 大 dà ni e’tirof etadi [20].

Xitoy tili quyosh energetikasi terminologiyasida 第 dì prefiksi orqali yasalgan bir qancha terminlar mavjud: 第一层盖板dì yī céng gài bǎn ‘birinchi qatlam qoplamapaneli’, 第一扩散方程dì yī kuòsàn fāngchéng ‘birinchi diffuziya tenglamasi’, 第一热力学定律dì yī rèlìxué dìnglǜ ‘termodinamikaning birinchi qonuni’. Shuningdek, xitoy tilida **等** *děng* prefiksi ham mavjud bo‘lib, u ‘daraja’ ma’nosini beradi: **一等**标准直接日射表*yī děng biāozhǔn zhíjiē rìshè biǎo ‘birinchi darajali standart pirgeometr’*, **二等**标准总日射表*èr děng biāozhǔn zǒng rìshè biǎo ‘ikkinchidarajali standart piranometr’*, **二等**标准全辐射表*èr děng biāozhǔn quán fúshè biǎo ‘ikkinchi darajali standart pirradiometr’*.

Zhao Yuanren “yangi prefikslar” tushunchasini ilgari surgan, ular qatoriga **不**bù, **非**fēi, **无**wú, **反**fǎn, 单dān, **多**duō, **准**zhǔn, 亲 qīn, **泛** fàn kabi prefikslarni kiritgan [21]. Ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilamiz:

多duō, aslida, ko‘p funksiyali sifat bo‘lib, hozirgi xitoy tilida ko‘proq so‘z yasovchi prefiks vazifasida qo‘llanadi [2;92-b.]. Hozirgi xitoy tili quyosh energetikasi terminologiyasida **多**duō “poli-“ prefiksi orqali hosil bo‘lgan terminlar mavjud. **英**汉太阳能词典 “Inglizcha-xitoycha quyosh energetikasi lug‘ati”-da 30 ta **多**duō prefiksi orqali yasalgan terminlar aniqlandi. Masalan: **多反射平面集**热器*duō fǎnshè píngmiàn jí rè qì “ko‘p marttalik aks ettiruvchi tekkis quyosh kollektori”*, **多**带隙太阳能电池*duō dài xì*

tàiyángnéng diànchí "ko'p tasmali quyosh batareyasi", **多光束干涉***duō guāngshù gānshè "ko'p nurli interferensiya"*, **多级系统***duō jí xìtǒng "ko'p bosqichli tizim"*. Ushbu terminlarda **多**duō prefiksining leksik ma'nosi susayib, "ko'p, katta miqdor" ma'nolarida ishlatilgan.

单dān "mono-" prefiksi **多**duō "poli-" prefiksiga antonim sifatida bir qator terminlar yasalishida ishtirok etgani aniqlandi. Masalan: **单色辐射通量***dān sè fúshè tōng liàng "monoxromatik nurlanish oqimi"*, **单电池** *dān diànchí* "monobatareya", **单斜晶结构***dān xié jīng jiégòu "monoklin kristall tuzilishi"* **单斜晶半导体***dān xié jīng bàndǎotǐ "monoklin kristalli yarimo'tkazgich"*.

不bù, **非**fēi, **无**wú prefikslari so'z negizidan oldin kelib, ulardan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni, biron belgi-xususiyatning yo'qligini, inkorni anglatadi [2;92-b.]. **英汉太阳能词典** "Inglizcha-xitoycha quyosh energetikasi lug'ati"da **不**bù prefiksi orqali yasalgan 10 ta termin, **非**fēi prefiksi orqali yasalgan 30ta termin hamda **无**wú prefiksi orqali yasalgan 17 ta termin aniqlandi. Masalan: **不均匀波***bù jūnyún bō "notekis to'lqin"*, **不透明性** *bùtòumíng xìng "noshaffoflik"*, **不均匀**辐射 *bù jūnyún fúshè "notekis nurlanish"*, **不可磨新***bù kě mó sǔn "qayta silliqlanmaydigan"*, **不等**间隔采样*bù děng jiàngé cǎiyàng "notekis diskretlash, turli oraliqda namuna olish"*;

非均匀介质*fēi jūnyún jièzhì "bir hil bo'lmagan muhit"*, **非均匀**辐射器*fēi jūnyún fúshè qì "bir hil bo'lmagan radiator'*, **非公用**发电*fēi gōngyòng fādiàn*, **非垂直**跃迁*fēi chuízhí yuèqiān 'vertikal bo'lmagan o'tish"*, **非**涡共振fēi wō gòngzhèn "girdobsiz rezonans";

无黏性的wú nián xìng de "yopishqoq bo'lmagan/viskoz bo'lmagan", **无**传输wú chuánshū "uzatishsiz", **无太阳能**输出wú tàiyángnéng shūchū "quyosh energiyasi chiqishi yo'q", **无太阳能**输入wú tàiyángnéng shūrù "quyosh energiyasi kirishi yo'q".

Xitoy tilida **初** chū prefiksi "dastlabki" ma'nosiga ega, quyosh energetikasi terminologiyasida **初** chū prefiksi orqali yasalgan terminlar ham aniqlandi: **初亏** chū kuī "birinchi qisman tutilish".

反fǎn prefiksi qo'shilishidan hosil bo'ladigan so'zlar zidlik, qarama-qarshilik ma'nolarini ifodalaydi: **反常色散** fǎncháng sèsàn 'noodatiy dispersiya, noodatiy ranglarning ajralishi', **反常消光**fǎncháng xiāoguāng 'noodatiy so'nish, noodatiy ekstinksiya".

Quyosh energetikasi terminologiyasida **半** bàn prefiksi orqali yasalgan terminlar ham aniqlandi. **半** bàn prefiksi asosini 'yarim' ma'nosiga ega bo'lgan morfema tashkil qiladi. Masalan: **半衰期**yarim yemirilish davri

超 chāo prefiksi yordamida yasalgan so'zlar terminologik leksika doirasida ko'proq uchraydi. U odatiy mezonlar (standart), o'lchovlar, me'yorlardan oshish ma'nosini ifodalovchi so'zlarni yasaydi. O'zbek tilida unga monand prefikslardan "giper'', "super"-, "ultra-" kabilar mavjud. Bu prefiksning asosi **超** chāo (oshmoq, oshirmoq) morfemasidir [5;84-b.]. Xitoy tili quyosh energetikasi terminologiyasida **超** chāo prefiksi yordamida yasalgan bir qancha terminlar aniqlandi: **超声波授推**chāoshēngbō shòu tuī "ultratovush yordamida harakatlantirish", **超强相互作用**chāo qiáng xiānghù zuòyòng 'o'ta kuchli o'zaro ta'sir', **超薄太阳能**电池chāo bó tàiyángnéng diànchí "o'ta yupqa quyosh batareyasi".

Xitoy tilida suffiksatsiya ham so'z yasalishida keng qo'llanadi. So'z yasalishida o'zak morfemadan keyin keladigan affiksal morfema **后缀** hòuzhuì 'suffiks' deb ataladi [5;85-b.].Xitoy tili quyosh energetikasi terminlari yasalishida **素**, **化**, **度**, **率**, **器**, **法**, **物**, **性**, **型**, **形**kabi suffikslari keng qo'llanadi.

素 sù morfemasi "komponent, element" deb tarjima qilinadi, suffiks sifatida qo'llanganda o'z ma'nosini saqlab qoladi: **元素** element, **因素** faktor.

化 huà yarim suffiksi biron-bir harakat jarayonini, predmetning bir holatdan boshqa bir holatga o'tishini, o'zgarishini anglatadigan so'zlarni yasaydi. **化** huà morfemasi "o'zgartirmoq" ma'nosiga ega bo'lib, suffiks sifatida o'z ma'nosini saqlab qolgan [5;129-b.]: **熔化** Rónghuà *"eritmoq"* , **液化** yèhuà "suyuq holatga o'tish", **气化** qì huà *"gaz holatiga o'tish"*.

器 qì suffiksi “apparat, buyum” ma’nosiga ega bo‘lib, so‘z yasovchi suffiks sifatida biron sohaga oid texnik buyum nomini yasaydi: **平板集**热器píngbǎn jí rè qì “yassi plastinali kollektor”, **真空管集**热器zhēnkōngguǎn jí rè qì “vakuum trubali kollektor”, **聚光太阳能集**热器jù guāng tàiyángnéng jí rè qì “konsentrlangan quyosh kollektori”.

率 lǜ suffiksi “ko‘rsatkich” ma’nosini beradi, so‘z yasovchi suffiks sifatida biron jarayon, hodisaning ko‘rsatkichini, koeffitsiyentini anglatadigan nomlarni yasaydi: **直接透**过率 Zhíjiē tòuguò lǜ ‘to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tish ko‘rsatkichi”; 发射率Fāshè lǜ “emissiya koeffitsiyenti”, **透光率**Tòu guāng lǜ “Yorug‘lik o‘tkazuvchanlik samaradorligi” , 系统总效率Xìtǒng zǒng xiàolǜ “tizim umumiy samaradorligi”.

法 fǎ suffiksi usul va uslubga oid nomlarni yasaydi: **最大功率跟踪法** zuìdà gōnglǜ gēnzōng fǎ “maksimal quvvatni kuzatish usuli”, **直接**辐射标定法 Zhíjiē fúshè biāodìng fǎ “to‘g‘ridan to‘g‘ri nurlanishni kalibrlash usuli”, 辉光放电方法 Huī guāng fàngdiàn fāngfǎ *“yorqin razryad usuli”*.

度 dù suffiksi biron ko‘rsatkichning darajasini ifodalovchi nomlar yasaydi: **硬度** qattiqlik darajasi, **深度** chuqurlik darajasi – **深**，长度 uzunlik, 大气光学厚度atmosferaning optik qalinligi.

性 xìng suffiksi narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, ularning xususiyatlarining anglatuvchi so‘zlarni yasaydi. Masalan: 稳定性wěndìng xìng “barqarorlik”， **减反射特性**jiǎn fǎnshè tèxìng “antirefleks xususiyati”， **方向**选择性fāngxiàng xuǎnzé xìng “yo‘nalish tanlash xususiyati”.

形 xíng suffiksi narsa-buyumning formasi, shaklini ifodalovchi so‘zlarni yasaydi: 绝对地形 juéduì dìxíng “mutlaq reylef”.

型 xíng suffiksi narsa-buyumning shakli, turi, modelini anglatuvchi so‘zlarni yasaydi: **集**热器类型 jí rè qì lèixíng “quyosh kollektori turlari”.

物wù suffiksi yordamida hosil bo‘lgan so‘zlar turli jonli va jonsiz predmetlar, inshootlar va h.k. larni anglatishi mumkin: **激活**产物 jīhuó chǎnwù “aktivatsiya mahsuloti”.

Quyida jadvalda quyosh energetikasi terminlari yasalishida prefikslar va suffikslar egallagan o‘rni foiz hisobida keltirilgan

Quyosh energetikasi terminlari umumiy soni = 1500 ta = 100%								
prefikslar			suffikslar			yarim suffikslar		
第 dì	3		**素** sù	18		**化** huà	15	
等 *děng*	4		**物**wù	12				
多duō	30		**器** qì	43				
单dān	8		**率** lǜ	32				
不bù	10		**法** fǎ	12				
非fēi	30		**度** dù	18				
无wú	17		**性**xìng	12				
初 chū	5		**形**xíng	16				
反fǎn	10		**型**xíng	20				
半 bàn	31							
超 chāo	10							

Xulosa. Mazkur tadqiqotda hozirgi xitoy tili quyosh energetikasi terminlarining hosil bo‘lishida affiksatsiya usulining o‘rni tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, quyosh energetikasi terminologiyasi struktur jihatdan rang-barang bo‘lib, u sodda va murakkab terminlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimda affiksatsiya usuli muhim so‘z yasalish vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, xitoy tilida so‘z yasovchi suffikslar va yarim affikslar yordamida ko‘plab terminlar hosil qilinadi. Xususan, 化, 性, 度, 率 kabi affiksal elementlar terminlarning semantik aniqligini ta’minlab, ilmiy tushunchalarni ixcham va tizimli ifodalash imkonini beradi. Affiksatsiya orqali hosil qilingan terminlar, ko‘pincha, abstrakt tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi hamda terminologik tizimning barqarorligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, affiksatsiya usuli xitoy tilining morfologik xususiyatlariga mos ravishda amalga oshadi. Morfema va bo‘g‘in mosligi, yarim affikslarning faol qo‘llanishi termin yasalish jarayonini o‘ziga xos tarzda shakllantiradi. Bu esa quyosh energetikasi sohasidagi yangi terminlarning tez va samarali shakllanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, affiksatsiya usuli hozirgi xitoy tili quyosh energetikasi terminologiyasida muhim o‘rin egallab, ilmiy-texnik tushunchalarning aniq, tizimli va ixcham ifodalanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari xitoy tilshunosligida termin yasalish jarayonlarini chuqurroq o‘rganish hamda soha terminologiyasini tizimlashtirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mustafayeva S.T. Xitoy tilshunoslik terminologiyasi. Fil.fan. falsafa dok. (PhD)… diss., Toshkent, TDSHI, 2017, 150-bet.

(2). Nasirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili: filol. fan. nomzodi diss., Toshkent, TDSHI, 2008, 91-bet.

(3). Karimov A.A. Xitoy tilidagi hisob so‘zlar (leksik-semantik, struktural va funksional tahlil). Toshkent, 2003, 76-bet.

(4). Sultanova L.A. Xitoy tilining tibbiyot terminologiyasi (jarrohlik terminlari misolida). Fil.fan.falsafa dok. …avtoref., Toshkent, 2022, 60-bet.

(5). Xashimova S.A. Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya, affiksatsiya va konversiya. Diss…(DSc), Tashkent, 2020, 27-bet.

(6). Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977, с. 90.

(7). Драгунов А. Грамматическая система современного китайского языка. Л., 1962, 270 с.

(8). Горелов В. Лексикология китайского языка. М., “Просвещение”, 1984, 321 с.

(9). Фролова О. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. Н., 1981, 132 с.

(10). Ошанин И. Слово и части речи в китайском языке. М., 1946, 125 с.

(11). Коротков Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. М., 1968, 400 с.

(12). Кленин И., Щичко В. Лексикология и фразеология китайского языка. М., 1978, 191 с.

(13). Солнцев В. Очерки по современному китайскому языку. М., “Восточная литература”, 1957, с. 81.

(14). Хаматова А. Словообразование современного китайского языка. М., “Муравей”, 2003, 223 с.

(15). Цыкин В.А. Именное словообразование в современном китайском языке. М., 1980, с. 12.

(16). 陈洁.论构词法与造词法的纠结及汉语造词法的类型[J].现代语文(语言研究版),2012:12-15 页

(17). 李金斯.汉语词汇研究.-北京，2001：71页

(18). 鲁直委. 汉语的构词法. – 北京, 1957. – 页 124.

(19).李进熙，刘世柱。汉语语法教学[汉语语法学习材料]。北京，1959 年，页. 37

(20). 丁中坚. 现代汉语语法讲话. – 北京, 1979. — 页 37.

(21). 赵原忍. 北京口语语法. – 香港, 1974. – 页 37.

(22). 高名凯，石安石. 语言学概论. 北京：中华书局出版社，1979. 第155–158页.

Xudayqulov Abdulla Eshquvatovich (Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD; axudayqulov@tersu.uz)

O‘ZBEK TILIDAGI RASMIY-IDORAVIY HUJJATLAR MATNLARIDA AYRIM INGLIZCHA QISQARTMALARNING ISHLATILISHI XUSUSIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan qisqartmalarning o‘zbek tili rasmiy-idoraviy hujjatlari matnlarida ishlatilishi o‘rganilgan. Unda etimologik jihatdan ingliz tiliga mansub bo‘lgan bir qator o‘zlashmalarning o‘zbek tilida ishlatilishi yozma manbalar asosida tahlil qilinib, ingliz o‘zlashmalarining so‘z oluvchi til qoidalariga moslashishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu abbreviatsiyalarni o‘zbek leksik birliklar bilan almashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *leksika, o‘zlashma, abbreviatsion o‘zlashma, yozma manbalar, ingliz tili, o‘zbek tili, moslashish.*

Худайкулов Абдулла Эшкуватович (доцент Термезского государственного университета, PhD; axudayqulov@tersu.uz)

УПОТРЕБЛЕНИЕ НЕКОТОРЫХ АНГЛИЙСКИХ АББРЕВИАТУР В ТЕКСТАХ УЗБЕКСКИХ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВЫХДОКУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье изучается использование английских аббревиатур в текстах официально-деловых документов узбекского языка. На основе письменных источников анализируется использование ряд английских аббревиатур в узбекском языке, а также приводятся сведения*